

TIL TA’LIMIDA MATN BILAN ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Fozilova Mohigul Farxodovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tili ta’limi jarayonida matnlar orqali o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishning turli metod va usullardan foydalanish xususida atroflicha ma’lumotlar berilib tahlil qilingan. Til nafaqat aql gimnastikasi va asosiy muloqot vositasi bo‘lish bilan birga milliy ma’naviyatni shakllantirish uchun asosiy qurol ekanligi bayon etilgan. Shuningdek, maqolada matnlar va grammatik topshiriqlar ham ma’naviyatni shakllantirishga yo‘naltirilganligining muhim jihatlari e’tirof etilib, uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, pedagogik faoliyat, loyihaviy ta’lim, pedagogik texnologiya, ta’lim metodlari, til ta’limi, o‘quv jarayoni.*

***Аннотация.** В данной статье в процессе обучения узбекскому языку дается и анализируется подробная информация об использовании различных приемов и способов формирования духовности учащихся посредством текстов. Утверждается, что язык является не только умственной гимнастикой и основным средством общения, но и основным инструментом формирования национальной духовности. Также в статье признаются важные аспекты того, что тексты и грамматические задания ориентированы на формирование духовности, и обсуждается ее значение в педагогической деятельности.*

***Ключевые слова:** педагогическая деятельность, проектное образование, педагогическая технология, методы обучения, языковое образование, образовательный процесс.*

***Abstract.** In this article, the advantages and disadvantages of using the project education method in the process of Uzbek language education are given and analyzed. The article also recognizes the important aspects of designing creative activity and talks about its importance in pedagogical activity.*

***Key words:** pedagogical activity, project education, pedagogical technology, educational methods, language education, educational process.*

O‘zbek tilini o‘qitishda ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalash, undagi ma’naviy sifatlarni va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash, milliy an’ana va urf-odatlarimiz o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lmish ma’naviy merosimizni asrab-avaylash hamda ularni davom ettirish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Biz bilamiz, dunyoviy va diniy bilimlar, jumladan umumta’lim maktablaridagi umumta’lim fanlar ham til orqali o‘rganiladi va idrok etiladi. Til nafaqat aql gimnastikasi va asosiy muloqot vositasi bo‘lish bilan birga milliy ma’naviyatni shakllantirishning asosiy quroli hamdir.

Shu bois, o‘zbek tili davlat tili sifatida O‘zbekiston Respublikasida davlat ramzi o‘laroq aholini yagona milliy manfaatlar atrofida birlashtiradigan, shu tilda so‘zlashuvchilarning tafakkur tili sifatida inson g‘ururini milliylik zaminiga bevosita bog‘laydigan, shu yurtda yashayotgan millat va elatlarning o‘zaro aloqasini ta‘minlovchi vosita, tilga bo‘lgan munosabat Vatanga bo‘lgan munosabat va sadoqatni belgilaydigan omildir. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1, 57] degan fikrlari har bir ta‘limga daxldor shaxslar uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘lim tizimida o‘zbek tilini o‘qitish ana shu g‘oya va ruhni singdirishga xizmat qiladi. Jamiyatning ijtimoiy nufuzini yuksaltirish bilan ta‘lim, ilm-fan, iqtisodiyot va siyosat sohalarida o‘zbek tilining mavqeyini mustahkamlash, ularda ish yuritishda davlat tilining mutloq yetakchilik maqomini ta‘minlash yo‘nalishini belgilagan holda ta‘limda o‘zbek tilini o‘qitish tizimi ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlarni yuzaga chiqarishni ko‘zda tutadi.

Bugungi kunda taraqqiyot davridagi jamiyat hayotining barcha jabhalari va sohaları chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamalikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”. [1, 79] Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili ta‘limining asosiy maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdir.

Filologik fanlardan (Ona tili va Adabiyot) davlat ta‘lim standartlari – DTSning malaka talablari bo‘yicha o‘quvchi shaxsida shakllantirilajak o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil o‘qib-o‘rganish; nutqiy kommunikativ kompetensiyasini muntazam oshirib borish; o‘z bilimi, xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini

egallash, til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to‘g‘ri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish kabi me‘yorlarga alohida e‘tibor qaratilgan [2].

Shunday ekan, o‘quvchilarni ma‘naviy va barkamol yetuk shax qilib tarbiyalash provardida ularni fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – badiiy matnlar bilan ishlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o‘quv amaliyotiga izchil joriy etish, o‘quvchini muammoli o‘quv topshiriqlari orqali ma‘naviyatga yetaklash va ma‘naviy bilimlarini kengaytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish, (so‘zning lug‘aviy ma‘nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og‘zaki nutqda) so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Ona tilining yangi - yangi ifoda imkoniyatlarini izlab toppish, ya‘ni ma‘naviyatni shakllantiruvchi badiiy matnlarni dars jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e‘tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Zero, o‘zlikni anglash, inson baxti va komillikka erishish kabi tushunchalariga Abdulla Avloniyning “Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar” purhikmat so‘zlari orqali ta‘rif beramiz. Inson o‘zligini anglagani sari uning ma‘naviyati ham yuksala boradi. Insonning insoniyligini belgilovchi muhim xususiyatlardan biri madaniy-ma‘naviy sifatlarga ega bo‘lishdir. Ushbu maqsadga erishishning samarali usul va vositalari xususida ko‘plab metodik qo‘llanma va ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Ularda ta‘lim mazmunini o‘quvchilarga maqsadli yetkazishning turli innovatsion usullari haqida fikrlar bildirilgan, amaliy tajribalar tavsiya etilgan. Biz esa ona tili darslarida o‘quvchilarga ma‘naviyatga doir badiiy matnlarni dars jarayonida foydalanish xususida to‘xtalmoqchimiz. Ona tili darslarida “badiiy matn bilan o‘qitish texnologiyasi” orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirib borish mumkin. Buning uchun badiiy matnlar bilan bog‘liq topshiriqlar bilan har bir darsda shug‘ullanish va ularni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish zarur. Buning uchun darslikdagi matnlardan tashqari badiiy matnlar beriladi. Masalan, *“Xalqimizda “Vatan ostonadan boshlanadi” deyishadi. Ostona bu-uy, xonadon, oila demak. Ma‘lum bir oilalalar avlodi esa sulola hisoblanadi. Qaysiki, sulola a‘zolari el-yurt manfaati yo‘lida xizmat qilib, xalq orasida obro‘-e‘tibor*

toparkan, bu yo‘l qolganlar uchun ibratlidir. Lekin har qanday oila, har qanday sulola ham o‘z-o‘zidan ana shunday mavqega ega bo‘lishi mushkul. Buning uchun ushbu sulolaga mansub bo‘lgan kimdir uning ravnaqi uchun “ilk marotaba yo‘l ochadi”, boshqa bir a‘zosi esa an’anani mazmunan kengaytiradi.

Masalaning muhim tomoni-sulolalar obro‘cini saqlab, ushbu sharaflari ishni davom ettiradigan zurriyotlarni voyaga yetkazishdan iboratdir”

Mazkur matn bo‘yicha o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Matnga sarlavha qo‘ying.
2. Quyida jadvalga berilgan tushunchalar mohiyatini izohlang.

Tushuncha	Mazmuni
Vatan	
Oila	
Sulola	

3. Vatan, ostona, avlod, xonadon, an’ana so‘zlarining sinonimlarini toping.

4. O‘zingizning shajarangizni yozing. (kimning farzandisiz, otangiz kim, katta bobo-buvilaringiz kimlar bo‘lgan?)

“Girgitton buvining yapon nevarasi”

“...Xay, xay, girgitton, tegma, tegma, yong‘oqqa. – shunday deb ildam keldi-da, qo‘limdagi yong‘oqlarni olib, pastak devor osha naryoqqa uloqtira boshladi.

So‘ng xazon orasida yotgan boshqa yong‘oqlarni ham enkayib terganча, devor ortiga tashladi. Buvining bunday “qizg‘anchiqligiga hayron bo‘lib turib qoldim. Nihoyat to‘kilgan yong‘oqlar qolmaganiga ishonch hosil qilgach, qo‘limdan yetakladi. “Yuraqol, girgitton, sanga boshqa yong‘oq beraman”. Shunday deb, pastak bostirmaga olib kirdi-da, savatga uyulib yotgan yong‘oqlardan hovuchlab olib, do‘ppimni to‘ldirib berdi”

(O‘. Hoshimov)

1. Ushbu hikoyada qanday qadriyatlar tilga olingan? Bu qadriyatlarning shakllanish Makoni qayerda?
2. “Klaster” metodi. Oilangizdagi qadriyatlarni klaster metodi orqali yoritib bering.
3. Matndan shevaga xos so‘zlarni ajratib ko‘rsating.
4. Hikoyada qo‘shma gapning qaysi turlari ishtirok etgan?

Bu kabi badiiy matnli o‘qitish usullaridan har bir ona tili darsida foydalanish mumkin. Buning uchun ma’naviyatni yuksaltiruvchi badiiy matnlarni va ular bilan

bog‘liq topshiriqlarni dars mavzusiga aloqador grammatik topshiriqlar bilan boyitish zarur. Ona tili darslarida o‘quvchilarning badiiy matn orqali ma’naviyatni shakllantirish ko‘nikmalarini yuqorida tavsiya etilganidek bosqichli ravishda rivojlantirib borish natijasida o‘quvchilarning nutqiy malakasini rivojlantirishga, ham mantiqiy tafakkurini o‘stirishga erishish mumkin.

Mana shunday ma’naviyatga tayangan holda tanlangan badiiy matnlar ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘zlikni anglashlariga va ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2017 йил 6 апрел, 187-сонли қарори. Электрон манба: www.lex.uz/doks/
3. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2015.
4. “Matn yaratish texnologiyasi”. T.Ziyodova. – Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2007.